



XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI KENGASHINING QARORI

Termiz shahri, At-Termiziyo ko'chasi 1-uy. 190100, tel: (76) 224-12-30, (76) 224-03-94, (76) 221-74-81

2021 йил «27» август

VI-35-82-8-0-K/21

Сурхондарё вилояти ҳокимлиги

“Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuniga qo‘srimcha va o‘zgartirishlar kiritish haqidagi O‘RQ 445-sonli qonun ijrosi to‘g‘risida

“Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuniga qo‘srimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risidagi O‘RQ 445-sonli qonuning ijrosi yuzasidan Markaziy bank Surxondaryo viloyati bosh boshqarmasi boshlig‘i U.X.Zokirovning bergen axboroti tinglandi va bildirilgan fikr-mulohazalardan kelib chiqib, xalq deputatlari viloyat Kengashi **qaror qiladi**:

1. Xalq deputatlari Surxondaryo viloyati Kengashining Ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasining yig‘ilishi ZOOM dasturi orqali o‘tkazilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi Qonuniga asosan jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko‘rib chiqish, kredit masalasidagi mavjud kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish borasida O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Surxondaryo viloyati bosh boshqarmasi boshlig‘i U.Zokirovning hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Barcha viloyat, tuman (shahar) bank va boshqa tashkilotlar rahbarlari:

murojaatlarni ko‘rib chiqish uchun mas’ul bo‘lgan xodimlarning mas’uliyatini oshirish, bunda murojaatda ko‘tarilgan masalalarni karantin talablari asosida ariza muallifi bilan joyida uchrashgan holda ko‘rib chiqish hamda amaldagi qonun hujjatlari talablariga muvofiq hal etish yoki to‘liq asoslantirilgan javob xatlarining belgilangan tartibda va muddatlarida yuborilishi ta’minlash;

murojaatlarni joyida uzil-kesil hal etishda hamda murojaatlarning ko‘rib chiqilishida loqaydlik qilib, takroriy murojaatlarning yuzaga kelishiga yo‘l qo‘ygan mas’ul xodimlarga nisbatan mehnat kodeksining 181-moddasi talablari asosida choralar ko‘rib borish;

murojaatlarga berilayotgan javoblarda unda ko‘rsatilgan har bir masala bo‘yicha vajlarni inkor etuvchi yoki tasdiqlovchi aniq asoslar bo‘lishini ta’minlash;

jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini qabul qilish bo‘yicha barcha viloyat

bank tashkilotlari rahbarlari hamda ularning tuman (shahar) filiallari boshliqlarining “ishonch telefon”larini belgilangan tartibda (24/7 rejimida) uzluksiz ishlashini ta’minlash;

jismoniy va yuridik shaxslarning bank va kredit masalalari bo‘yicha murojaatlarini hal etish, amalga oshirilayotgan ishlar hamda ko‘rilayotgan choralar yuzasidan xalq deputatlari viloyat, tuman (shahar) Kengashlariga yozma axborot taqdim etib boorish choralarini ko‘rsin.

4. Tuman (shahar) hokimlari:

jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan kelib tushayotgan (bank, kredit sohasidagi) murojaatlarni sayyor hamda shaxsiy qabullarni samarali tashkil etib, doimiy ravishda tanqidiy muhokama etib borish:

tumanlar sektor rahbarlariga jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan (bank va kredit) kelib tushayotgan murojaatlarni ko‘rib chiqishda qonun talablariga qat’iy amal qilish va belgilangan muddatlarda bajarilishini ta’minlash yuzasidan talabchanlikni oshirish choralarini ko‘rsin.

5. Yuqorida masalalar yuzasidan har chorak yakuni bo‘yicha tegishli mansabdor shaxslarning hisoboti xalq deputatlari viloyat Kengashining majlislarida muhokama etib borilsin.

6. Mazkur qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Кенгаш раиси



Bobolov T.A.